TALABALARNING MALAKAVIY AMALIYOTINI O‘TKAZISH YUZASIDAN IKKI TOMONLAMA

SHARTNOMA

Chirchiq shahri **2025 yil “09” 25**

Mazkur shartnoma Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori **G.I.Muxamedov** hamda GRAND MIR HOTEL - mehmonxonasi direktori **Sh.G.Giyasov** tomonidan o‘zaro kelishuv asosida tuzilgan.

SHARTNOMANING MAZMUNI:

61010100 – Turizm va mehmondo‘stlik ta'lim yo‘nalishi talabalarining malakaviy amaliyotini 2024-2030-o‘quv yilida dam olish kunlaridan tashqari har kuni amaliyot o‘tkazish, talabalarning malakaviy amaliyot o‘tash bo‘yicha tajriba-sinov va kuzatuv ishlarini olib borishdan iborat.

MALAKAVIY AMALIYOT O‘TKAZILADIGAN MUASSASASINING MAJBURIYATLARI:

- muassasa ish kuni tartibiga muvofiq 61010100 – Turizm va mehmondo‘stlik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy amaliyotini o‘tkazishga sharoit yaratib berish;
- talabalarga malakali mutaxassislarni biriktirish;
- amaliyotchi talabalarning mazkur muassasasidagi joriy qilingan ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlash va nazorat qilish;
- zarur bo‘lgan hollarda, ichki mehnat intizomini buzgan amaliyotchi talabalarga amaliyot muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan jazo ko‘rish va bu haqda oliy ta'lim muassasasi rektoriga xabar berish.

UNIVERSITETNING MAJBURIYATLARI:

- Universitet bo'yicha amaliyotga tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazish va yakunlash ishlarini tashkil qiladi, amaliyotni o‘tkazish vaqtini tuzadi;
- Malakaviy amaliyot bo'yicha fakultetlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Amaliyot bo‘yicha rektor buyruqlari va ko'rsatmalari loyihasini tuzadi;
- Malakaviy amaliyot bo'yicha mas'ul xodimlarining faoliyatini nazorat qiladi. Kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi;
- Yo‘nalishlar bo‘yicha amaliyot boshliqlari hisobotlari asosida universititet bo‘yicha umumiy hisobotni tuzadi va o‘quv ishlari prorektoriga taqdim etadi;
- Malakaviy amaliyotni o‘tkazish bo‘yicha uslubiy tajribalarni umumlashtiradi va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;
- Malakaviy amaliyotiga doir masalalarni muhokama qilishda kafedraning kengashlarida qatnashadi.

Scanned with CamScanner

SHARTNOMANING BEKOR QILINISHI

Shartnoma quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:

- shartnomaga o‘zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati tug‘ilganda.
- shartnoma har ikki tomonning imzosi qo‘yilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

Universitet manzili:
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pochta manzili: tvchdpi@edu.uz
Chirchiq shahri A.Temur ko’chasi 104 -uy
Telefon: (370)-716-68-11

Mehmonxona manzili:
Yakkasaroy tumani, Bog'ishamol mahalla, Mirobod 2
Telefon: +998781140-20-00

TOMONLARNING IMZOSI

Universitet rektori

_____ G. I. Muxamedov

2025-yil “26” 04

Shartnoma tuzgan mehmonxona rahbari

_____ Sh.G.Giyasov

2025-yil “04” 05